

LIRIK QAHRAMON RUHIYATI TASVIRIDA BADIY VOSITALARNING O'RNI

Mahliyo Sherah qizi Axmadaliyeva

Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasida o'qituvchisi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Lirikada odam ichki dunyosining so'zdagi izhori bo'lganida shoir har bir she'rida muayyan vaqtdagi konkret holati, ruhiy holatini chizadi. Agar odamning hayot yo'li son-sanoqsiz nuqtalar to'plamida iborat desak, she'r alohida olingan bir nuqtaning lisoniy muhridir. Shuning uchun ham, ko'p shoirlar o'z tarjimai holini yozganlarida, eng oxirida "qolganini she'rlarimdan topasizlar" deya qo'shib qo'yadilar. Zotan, shoirlarning haqiqiy tarjimai holi – she'rlarida aks etadi.

Kalit so'zlar: Lirikada, she'r, bolalar adabiyoti, shoirlar.

Annotation. When the lyric is a verbal expression of a person's inner world, the poet describes his concrete state and mental state at a certain time in each poem. If we say that a person's life path consists of a set of countless points, then a poem is a linguistic seal of a single point. That is why, when many poets write their biographies, they add at the end, "you will find the rest in my poems." Indeed, the true biography of poets is reflected in their poems.

Key words: Lyrics, poetry, children's literature, poets.

Аннотация. Когда лирика представляет собой словесное выражение внутреннего мира человека, поэт в каждом стихотворении описывает его конкретное состояние и душевное состояние в определенное время. Если мы говорим, что жизненный путь человека состоит из множества бесчисленных точек, то стихотворение есть языковая печать одной точки. Вот почему, когда многие поэты пишут свои биографии, они добавляют в конце: «остальное вы найдете в моих стихах». Ведь подлинная биография поэтов отражена в их стихах.

Ключевые слова: Лирика, поэзия, детская литература, поэты.

Adabiyotshunoslikda inson ma'naviy-ruhiy olamini talqin qilish va xilma-xil manzaralarda jonlantirish nazmga nisbatan nasrda ustunroq degan qarashlar ham ilgari surilgan. Holbuki, o'zbek she'riyatining uzoq asrlik tarixi bunday fikr-qarashlarning cheklanganligini tasdiqlaydi. Chunki, jahon she'riyatida bo'lgani kabi, o'zbek she'riyatining deyarli hamma davrlarida iste'dodli shoirlar inson qalbi va ruhiy olamidagi haqiqatlarni butun kengligi, murakkabligi va ziddiyatlari bilan tasvirlashga erishganlar. Bu fikrlar tasdig'i sifatida xalqimizning buyuk mutafakkir shoiri Alisher Navoiy she'riyatini eslashimiz mumkin. Inson qalbi va ruhiy olami tasviri she'riyatda, akademik Izzat Sulton so'zlari bilan aytganda, "shoir shaxsi bilan estetik idielning quymasidan" dunyoga kelgan lirik qahramon ruhiy hayoti sifatida ko'rinadi. Shu ma'noda B.G.Belinskiyning "poeziya ... subyektivlik saltanatidir, bu ichki dunyodir, o'z ichida qoluvchi va tashqariga chiqmaydigan tashabbuslar dunyosidir. Bunda poeziya ichki dunyo elementida, sezuvchi va filkrlovchi xayol doirasida qoladi; bunda ruh tashqi reallikdan o'tib, o'z ichiga o'zi

yashirinadi va tashqi dunyoni o'zida aks ettirgan ichki hayotining mislsiz jilo va jilvalarini poeziyaga hadya etadi. Bunda shoirning shaxsiyati birinchi planda namoyon bo'ladi, biz hamma narsani faqat va faqat u orqaligina qabul qilamiz va anglaymiz"¹, degan fikrlari o'z kuchini saqlab qoladi.

Lirika odam ichki dunyosining so'zdagi izhori bo'lganida shoir har bir she'rida muayyan vaqtdagi konkret holati, ruhiy holatini chizadi. Agar odamning hayot yo'li son-sanoqsiz nuqtalar to'plamida iborat desak, she'r alohida olingan bir nuqtaning lisoniy muhridir. Shuning uchun ham, ko'p shoirlar o'z tarjimai holini yozganlarida, eng oxirida "qolganini she'rlarimdan topasizlar" deya qo'shib qo'yadilar. Zotan, shoirlarning haqiqiy tarjimai holi – she'rlarida aks etadi.

Istiqlol davri xalq hayotidagi yangilanishlar bolalar she'riyati uchun chinakkamiga ijodiy-uslubiy izlanishlarga zamin yaratdi. Miraziz A'zam va Anvar Obidjonning shakl va mazmun uyg'unligiga asoslangan quvnoq she'rlari, Safar Barnoyev va Tursunboy Adashboyevning atrof-muhitni badiiy idrok etishda hayratlarga cho'mgan bolakayning beg'ubor tuyg'ulari aks etgan ertak, dostonlari, Hamza Imonberdiyevning o'z xayolotida dunyoni qanday bo'lsa shundayligicha kashf etishga qaratilgan yumorga boy "lof" lari, Qambar Ota va Abusaid Ko'chimovning jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy fuqarolik tarbiyasi bilan bog'liq yangilanishlarga munosabati jo'shqin falsafiy-publitsistik ruhda aks etgan she'riyati namunalari, Rustam Nazar va Abdurahmon Akbarning beg'ubor bolalik kechinmalarini odatdagidan o'zgacha shakl va ranglarda ko'rishga, ko'rsatishga intilgan izlanishlari, Kavsar Turdiyevaning bolalik dunyosini onalik tuyg'usi bilan tavsif markaziga qo'ygan o'ynoqi she'r va tarjima asarlari, istiqlol davri bolalar she'riyatining bo'y-bastini ko'rsatadigan ijod mahsullaridir. Ularning ichida badiiy ijodga doir o'tish davri mashaqqatlarini bosib o'tib, istiqbolga dadil qadam qo'ygan Dilshod Rajab asarlari o'ziga xos o'rin tutadi. Dilshod Rajab o'z she'rlarida o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, anafora, tavze, takror kabi badiiy san'atlardan foydalanib, she'rlarining ohangdorligini, mazmundorligini oshiradi. Shoir asarlari badiiyati bilan ham ajralib turadi. Uning sherlarida Vatan obrazi asosiy o'rin tutadi. Shoir majoziy obrazlar yordamida bolalarga to'g'ri talim berib, ularning barkamol avlod bo'lib yetishuviga munosib hissa qo'shmoqda.

Xulosa qilib aytganda istiqlol davri xalq hayotidagi yangilanishlar bolalar adabiyoti, she'riyati uchun chinakkamiga ijodiy-uslubiy izlanishlarga zamin yaratdi. Miraziz A'zam, Anvar Obidjon, Safar Barnoyev, Tursunboy Adashboyev, Hamza Imonberdiyev, Qambar Ota, Abusaid Ko'chimov, Rustam Nazar, Abdurahmon Akbar, Kavsar Turdiyeva, Dilshod Rajab va boshqa yozuvchilar bolalar uchun yozgan she'rlarida bolalar dunyosi, ona-Vatan, ijtimoiy-hayotiy voqealar, zamona taloto'plari, jamiyatda kechayotgan yaxshi-yomon o'zgarishlarni o'ziga xos uslubda, ohangda bolalarbop ifoda etadi. Ijodkorlarning o'z ovozi, tahliliy mushohadalarga boy publitsistikasi, esse va ertaklari istiqlol davri bolalar adabiyotini yangi tamoyillar bilan boyitishga o'z hissalarini qo'shdilar. Ularning she'rlarida hurfikrlilik yarq etib ko'zga tashlanadi,

¹ Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar.-T.: 1995.- B.134.

lirik qahramonlar haqiqatga tik boqadi. Ularning asarlarida Vatan oldidagi burch va masuliyat eng oliy insoniy tuyg`u ekanligi anglashilib turadi. Xuddi shu qirralar istiqilol davri bolalar adabiyotining yetakchi g`oyalaridandir.

Adabiyotlar ro`yxati

1. Ahmadaliyeva, M. S. (2022). Text and interpretation in discourse analysis. *Trends in Education Foreign Languages and International Economics*, 1(1), 382-386.
2. Ахмадалиева, М. Ш. (2022). Роль литературной критики в саморазвитии писателя. *Мугаллим*, 1(2), 14-17.
3. Давлатова, А. Р., & Ахмадалиева, М. Ш. Қ. (2021). Жадид драматургиясида баркамол шахс ва идеал жамият талқини. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 1100-1108.
4. Туньян, А. А., Тошпулатов, Х. М., Ибрагимов, Ф. З., Умматов, А. А., Пулатов, А. А., Ашуркова, С. Ф. (2021). Развитие паралимпийского спорта в Ташкентской области. *Спорт и социум*, 5(14), 76-78.
5. Vladimirovich, G. Y. (2022). PRECEDENT-RELATED NOMINALS: CLASSES AND ORIGINS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(12), 212-217.
6. Musayev, N. U. (2022). SKILLS OF PATRIOTIC EDUCATION OF STUDENTS IN MUSIC LESSONS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 482-486.
7. Musayev, N. U. (2022). BO 'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O 'QITUVCHILARINING KASBIY MAHORATINI OSHIRISH TAMOYILLARI. *Uzbek Scholar Journal*, 10, 183-189.